

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 334.7:677:001.895(575.1)**

SHERKULOV SHOHRUH ERKIN O‘G‘LI

**KLASTERLAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: Mamaraximov Bekzod Erkinovich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I- KLASSTERLAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI	
BOB. OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMINI	
TAKOMILLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI...	12
1.1. Klasterlar faoliyatining samaradorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	12
1.2. Klaster iqtisodiyotning samaradorligini oshirishning zamonaviy vositasi sifatida.....	30
1.3. Klasterlar faoliyatining samaradorligini oshirishda klasterlar tomonidan suv resurslaridan oqilona foydalanish zarurati.....	36
1-bob bo'yicha xulosalar.....	46
II- O'ZBEKISTONDA KLASSTER TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	
BOB. ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING HOLATI	
TAHLILI.....	48
2.1. To'qimachilik sohasida klaster rivojlanishining xorijiy tajribasi va uni O'zbekistonda amalga oshirish yo'llari.....	48
2.2. Klaster faoliyatida samaradorlikni oshirishning iqtisodiy mexanizimini takomillashtirishni davlat tomonidan tartibga solish..	57
2.3. Mamlakatimizda klaster tizimining iqtisodiy rivojlanish holati tendensiyalari.....	64
2-bob bo'yicha xulosalar.....	74
III- KLASSTER TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI	
BOB SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI VA	
ISTIQBOLLARI.....	76
3.1. Klaster tizimini rivojlantirish orqali samaradorlikka erishishda davlatning narx siyosati.....	76
3.2. O'zbekistonda to'qimachilik klasterini shakllantirish mexanizmi va istiqbollari.....	84
3.3. O'zbekistonda sug'urtalash tizimi orqali klasterlarni rivojlantirish.....	105
3-bob bo'yicha xulosalar.....	111
XULOSA.....	113
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	115
ILOVALAR	122

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanish sharoitida milliy iqtisodiyotning samaradorligini oshirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki xalqaro bozorlarda milliy mahsulotlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, klaster tizimlarini rivojlantirish korxonalar va mintaqalar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Klasterlar dunyo bo'ylab iqtisodiy o'sish va samaradorlikni oshirishda muhim ro'l o'ynaydi. Masalan, AQShda 380 ta klaster mavjud bo'lib, ular mamlakatdagi yirik korxonalarning yarmidan ko'pini birlashtiradi va yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 60 foizini tashkil etadi. Italiyada sanoatda band bo'lganlarning 43 foizi 206 ta klasterda mehnat qiladi va mamlakat eksportining 30 foizdan ortig'i ushbu klasterlar hissasiga to'g'ri keladi.¹ Umuman olganda, klasterlar dunyo iqtisodiyotining qariyb 50 foizini qamrab oladi².

Hozirgi global integratsiya va raqobat sharoitida jahondagi klasterlarning bozor faoliyatini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlaridan foydalanish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, global COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozdan chiqish strategiyalarini ishlab chiqish, klasterlashgan korxonalarda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tizimlarini takomillashtirish, klasterlar faoliyatini samarali tashkil etish, tarmoqning samaradorligini innovatsion mahsulotlar orqali oshirish, global qiymat zanjirlarini shakllantirish va iqtisodiyotning yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlarini rivojlantirish kabi masalalar ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston milliy iqtisodiyotida samarali xo'jalik yuritishning zamonaviy shakllaridan biri sifatida klasterlashuv tizimi joriy qilinmoqda va ushbu

¹ <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/28128/28955>

² <https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts?cluster>

yo‘nalishda sakkiz yillik tajriba to‘plandi. Bu tizim yuqori qo‘shilgan qiymatni shakllantirish hamda turli tarmoqlarda iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlashda hamda mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil ekanligini isbotlamoqda. 2017 yilda faqat ikkita klaster tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunda ular soni keskin ortib, 2024- yilning, 1-iyul holatiga ko‘ra klasterlar soni – 398 tani tashkil etmoqda³. Ushbu klasterlar xomashyo ishlab chiqarishdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab olib, oraliq ishlab chiqarish bosqichlarida yuqori qo‘shilgan qiymatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, klasterlar tizimini rivojlantirish jarayonida qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Xususan, klasterlarning nazariy asoslari to‘liq shakillanmaganligi, iqtisodiyotning rivojlanishiga uzoq muddatli strategik yondashuvning yetishmasligi, tabiiy resurslar va boshqa resurslardan samarali foydalanish masalalari, investitsiyalarni jalb qilishdagi cheklovlar, ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini oshirish imkoniyatlarining yetarli emasligi hamda tarmoqda samaradorlikni ta‘minlashdagi qiyinchiliklar klaster tizimining yanada takomillashuviga to‘sqinlik qilmoqda. Ushbu holatlar klasterlarning raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda klasterlarni tashkil etishning nazariy asoslarini shakllantirish va ularning faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

2017-yil 5-maydagi “Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachilik-to‘qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2978-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi “2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5024-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlarini

³ <https://www.toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/14986-nashr-1488>